

**Mahkamxon G'AFFAROVA,**

*Andijon davlat chet tillar instituti erkin tadqiqotchisi*

*E-mail: shohidas3@mail.ru*

*Tel: (97) 9827711*

*ADU professori, f.f.d. Sh.Shahobiddinova taqrizi asosida*

## **COMMUNICATION BARRIERS – AN OBJECT OF LINGUISTICS RESEARCH**

Annotatsiya

This article discusses the issue of studying and classifying the concept of communication barrier. The need to study its linguistic and extralinguistic features in a monographic plan as a complex socio-psychopragmatic phenomenon is emphasized.

**Key words:** “Communication barrier”, “pragmatic barrier”, “communication barrier”, language barrier, content barrier, methodological barrier, logical perception barrier, sociocultural barrier, semantic barrier.

## **КОММУНИКАТИВНЫЕ БАРЬЕРЫ – ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ ЛИНГВИСТИКИ**

Аннотация

в данной статье рассматривается вопрос изучения и классификации понятия коммуникативный барьер. Подчеркивается необходимость изучения его лингвистических и экстралингвистических особенностей в монографическом плане как комплексного социопсихопрагматического явления.

**Ключевые слова:** «Коммуникативный барьер», «прагматический барьер», «коммуникативный барьер», языковой барьер, содержательный барьер, методологический барьер, барьер логического восприятия, социокультурный барьер, смысловой барьер.

## **KOMMUNIKATIV TO'SIQ – TILSHUNOSLIKNING O'RGANISH OB'EKTI**

Annotatsiya

ushbu maqolada kommunikativ to'siq tushunchasining o'rganilishi va tasnifi masalasi xususida fikr yuritiladi. Uni keng qamrovli sotsiopsixopravmatik hodisa sifatida lingistik va ekstralngistik xususiyatlarini monografik planda o'rganish zarurati mavjudligiga urg'u beriladi.

**Kalit so'zlar:** “Kommunikativ to'siq”, “pragmatik to'siq”, “muloqot to'sig'i”, lisoniy to'siq, mazmuniy to'siq, uslubiy to'siq, mantiqiy idrok to'sig'i, ijtimoiy-madaniy to'siq, semantik to'siq.

**Kirish.** Kommunikativ to'siqlar – muloqot samarasizligiga olib keladigan muhim nutqiy hodisa bo'lib, u turli-tuman sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Kommunikativ to'siq - bu o'rinni va aniq ma'lumotni uzatish va qabul qilish jarayonida yuzaga keladigan psixologik qiyinchilikdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur masala, shu paytga qadar, asosan, psixologiya aspektida o'rganilgan bo'lib, G.G.Kamardina, L.S.Popova, A.P.Panfilova, I.R.Rakey, Ye.A.Negashewalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Tilshunoslik nuqtai nazaridan, xususan, o'zbek tilshunosligida ham M.Hakimov, M.Qurbanova, R.R.Bobokalonov, Z.G.Karimova, Sh.R.Atamuradov va boshqalarning tadqiqotlarda mazkur muammoga endigina e'tibor qaratilmoqda va “kommunikativ to'siq”, “pragmatik to'siq”, “muloqot to'sig'i” kabi turlicha atamalar bilan nomlanish kuzatilmoqda [1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11].

Muloqot to'siqlari – bu muloqot jarayonida yuzaga keladigan nizolarni keltirib chiqaradigan, o'zaro tushunish yoki o'zaro ta'sirga to'sqinlik qiladigan psixologik qiyinchiliklardir [3].

L.L.Popovaning fikricha, muloqot to'siqlari (kommunikativ to'siqlar) turli xil sabablarga ko'ra kelib chiqadigan, ya'ni istalmagan, zerikarli yoki xavfli ma'lumotlarni olish jarayonida paydo bo'ladigan psixologik qiyinchilikdir [8].

E.A.Kuluxovaning tasnifiga ko'ra, kommunikativ to'siqlar paydo bo'lishining quyidagi sabablarini ko'rsatish mumkin:  
xabar mazmunining murakkabligi (nutq, so'zlar, imo-ishoralar, tana harakatlari bilan bog'liq);  
noodatiy va murakkab xabar shakli;  
kommunikatsiya vositalari bilan bog'liq muammolar;  
yomon teskari aloqa;  
axborotni kechiktirish va boshqalar [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida psixolingvistik va sotsiolingvistik tadqiq metodlari: kuzatish, analiz, sintez, komponent tahlillar qo'si keladi.

**Tahlil va natijalar.** Muloqot to'siqlari til tashuvchilarining xarakteri, dunyoqarashi, nutqiy imkoniyatlari, muloqot qilish qobiliyati/qobiliyatsizligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Muloqot jarayonida adresatning suhabatdoshni tinglash va tushunish qobiliyati ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bilan bog'liq fiziologik yoki nutqiy kamchiliklar o'z-o'zidan kommunikativ to'siqni paydo qiladi. Muloqot tushunchasi keng qamrovli integratsion tabiatiga ega ekanligiga muvofiq tarzda kommunikativ to'siq tushunchasi ham inson omili bilan bog'liq murakkab sotsiopsixopravmatik jarayon hisoblanadi. Shuning uchun kommunikativ to'siqning ayricha jihatlarini nazarda tutuvchi turlicha yondashuvlar asosidagi tasniflari mavjud. Ularning ayrimlariga e'tibor qaratamiz.

Kommunikativ to'siqning umumiyligi tabiatiga ko'ra quyidagi turlari ajratiladi:

- fonetik to'siq – kommunikantlarning tez, noaniq gapirishi;
- mazmuniy to'siq - jargon yoki terminlarning qo'llanishi;
- uslubiy to'siq – muloqot vaziyatiga mos bo'limgan nutq, rasmiylik;
- mantiqiy idrok to'sig'i – murakkab, ishonchhsiz nutq;
- ijtimoiy-madaniy to'siq – muayyan ijtimoiy maqomlarning farqlanishi yoki kommunikantlarning har xil tilda gapirishi;
- psixologik to'siq - psixologik jihatdan ishonchsiz uzatish yoki qabul qilish (ishonchhsiz stereotiplar, tushunmovchilikni taxmin qilish, salbiy ustanonvka) [11].

Muammoning qamrab olinishi nuqtai nazaridan mazkur tasnifdagi fonetik to'siq (foneticheskiy barer) tushunchasini inkor etmagan holda bu o'rinda uning o'rniga lisoniy to'siq atamasini qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Negaki,

kommunikativ to'sinqing nutqiy jihatni faqat fonetik xususiyatlardan bilangina chegaralanmaydi. Zero, aytib o'tish joizki, L.S.Popova lisoniy to'siqlarning uch turini ajratib ko'rsatadi:

semantik to'siq muloqot sheriklarining semantik mazmunida mayjud bo'lgan sezilarli farqlar va nomuvofiqliklar tufayli yuzaga keladi. Bu to'siq, asosan, jargon va slenglar muammosi bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy va etnik tafovutlar yetarli darajada bo'lgan har qanday jamiyatda ko'plab submadaniyatlarning mavjudligidan kelib chiqadi;

stilistik to'siq axborot uzatuvchi va qabul qiluvchining psixologik holati yoki nutq uslubi o'rtasida nomuvofiqlik mayjud bo'lganda paydo bo'ladi. Bunday to'siqqa so'kinish, parazit (ortiqcha), tushunarsiz va ko'p bo'g'inli so'zlardan foydalanish sabab bo'lishi mumkin. Bularning barchasi muloqotning buzilishiga olib kelishi mumkin;

fonetik to'siq turli tillarda yoki dialektlarda muloqot qilish jarayonida agar muloqot ishtirokchilari dixsiya va nutqda turli xil nuqsonlarga ega bo'lgan holatda paydo bo'lishi mumkin. Shuningdek, tez gapirish, parazit tovushlar va boshqalarni qo'llash ham sabab bo'lishi mumkin [8].

Kommunikativ to'siq turlari bo'yicha O.Yu.Bryuxovaning tasnifi ancha mukammal shakllanrilgan.

1. Til va nutq to'siqlari. Xabar yoki uning tarkibiy qismlarining ma'nosi aniq emasligi, haddan tashqari murakkablik, jo'natuvchining noaniq niyati va boshqalar.

2. Shaxslararo to'siqlar. Muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro tushunishga to'sqinlik qiladigan salbiy munosabatlar.

3. Shaxsiy to'siqlar. Muloqot ishtirokchilarining shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq to'siqlar (uyatchanlik, qat'iyatsizlik, temperament va xarakter xususiyatlari va boshqalar), shuningdek, ularning muloqot odobi xususiyatlari bilan bog'liq.

4. Makon-zamon to'siqlar. Aloqa ishtirokchilarining bir-birdan uzoqligi bilan bog'liq to'siqlar, shuningdek, xabar yuborilganidan keyin sezilarli vaqt o'tishi bilan qabul qilingan holatlar.

5. Texnik to'siqlar. Axborot uzatish vositalarining noto'g'ri ishlashi yoki ulardan noto'g'ri foydalanish natijasida yuzaga keladigan to'siqlar.

6. Shart-sharoit bilan bog'liq to'siqlar. Muloqotga xalaqit beradigan tabiiy yoki boshqa omillar (shovqin, xona harorati, muloqot sharoitlari va boshqalar) mavjudligi bilan bog'liq to'siqlar.

7. Ijtimoiy-madaniy to'siqlar. Turli odamlar guruhlari tomonidan baham ko'rilgan me'yorlar, qadriyatlar, stereotiplardagi farqlar natijasida yuzaga keladigan to'siqlar.

8. Madaniyatlararo to'siqlar. Tillar yoki madaniyatlar o'rtasidagi farqlar natijasida yuzaga keladigan to'siqlar [2].

Notiqlik bo'yicha mutaxassis N.M.Timchenko "Ishbilarmonlik muloqotidagi muvaffaqiyat sirlari" kitobida suhbatdoshlarning o'zaro ma'lumot almashishida qiyinchilik keltiradigan mantiqiy va kommunikativ madaniyat bilan bog'liq sabablarni quyidagicha belgilaydi:

ifodaning noto'g'riliqi, fikrning sochqinligi;  
fikrlarni so'zlarga bog'lashning nomukammalligi;  
tezisda mantiqiy qarama-qarshilikning mavjudligi;  
semantik bo'shliqlar va fikrda sakrashning mavjudligi;  
kasbiy atamalardan noo'rin foydalanish;  
suhbatdoshning niyatini noto'g'ri talqin qilish;  
chet tili so'zlaridan ortiqcha foydalanish;  
suhbatdoshning to'liq ma'lumotga ega emasligi;  
axborot taqdim etishning tezligi;  
idrokning turli kanallariga e'tibor bermaslik;  
tana tilining so'zlarga mos kelmasligi [9].

M.Qurbanova "O'zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik ishida bolalar kommunikativ faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladigan pragmatik to'siqlar ikki jihatdan o'rganadi:

1. Bolalar nutqida pragmatik to'sinqing yuzaga kelishi.

2. Bolalar tomonidan o'zgalar nutqining pragmatik to'siq sifatida qabul qilinishi [10].

Mana shu ikki jihat, umuman, kommunikativ to'siq tushunchasining ikki xil nazariy yo'nalishini belgilash uchun asos bo'la oladi, ya'ni qiyinchilik paydo bo'lishining manbai sifatida so'zlovchi (adresant) va qabul qiluvchi (adresat) pozitsiyasi nuqtai nazaridan yondashuv talab etiladi.

Muloqot xarakteri nutq vaziyatiga ko'ra turli-tuman bo'lgani sababli kommunikativ to'siqlar sabablarini belgilashda aniq bir mezonning yo'qligi, tasniflarda yondashuvlarning har xilligi kuzatildi. Biroq ularni umumlashtirib, lingistik va ekstralengistik omillar deb belgilash mumkin.

Mutaxassislarning farqlashicha, global miqyosda aloqa samaradorligiga to'sqinlik qiladigan uch turdag'i muloqot to'siqlarini ajratish mumkin:

• Jismoniy muloqot to'siqlariga ijtimoiy masofa, masofaviy yoki dala ishlari, idoraning yopiq eshiklari va boshqalar kiradi.

• Biror kishi ishonchsizlik va qo'rquv kabi his-tuyg'ular natijasida emotsiyonal muloqot to'siqlarini boshdan kechiradi.

• Verbal va noverbal muloqot shakllarining xususiyatlari va farqlari tufayli lisoniy muloqot to'siqlari paydo bo'ladi[12].

Qo'ng'iroq jaranglashi bilan (o'qituvchi) sinfga kirdi-yu , Asrordan boshqa barcha bolalarining hurmat yuzasidan o'rinalidan turganlarini ko'rди. Hamma jo'rovoz bo'lib salom bergen onda Asror uyg'onib, bir oz garangsigan holda o'rnidan turdi. Qorieva bolalarga o'tirish uchun ijozat bergach,unga tikilib qoldi.

- Uyqu uchun eng qulay joy - sinf xonasi, degan donishmand to'g'ri aytgan ekan. Mirisaev, sen bu dono fikrga qo'shimcha qila olasammi?

Uning bu pichingi ayrim bolalarni kuldirdi.

- Agar yaxshi dam olvolgan bo'lsang, darsni boshlaymiz,- dedi u Asrorga yaqin kelib. - Sen bizga Makinder va Mexenning geosiyosiy qarashlarini gapirib ber.

Kechani talvasa bilan o'tkazgan Asrorga bir necha daqiqalik uyqu orom bera olmagandi. Uyqandan avval karaxt bo'lib turgan boshsha endi azobli og'riq qo'zg'algan edi. Shu bois u Qorievaning pichingi sababini anglamadi, hozirgi savolini ham tushunmadni. Ko'zlarini devordagi xaritaga ma'nosiz tikanicha jim turaverdi. Qorieva buni o'jarlik alomati deb bilib g'ashlandi. (tohir Madik, "Talvasa")

Salbiy muhit ta'sirida jinoyat yo'liga kirib qolgan o'smirlar hayotidan hikoya qiluvchi asardan olingan ushbu parchada Asrorning o'z hayotida bo'layotgan voqelik ta'siridagi ruhiy zo'riqishlar oqibatida karaxt holatda maktabga kelishi, uyqusirab o'tirishi oqibatida uning o'qituvchi bilan muloqoti muvaffaqiyatsiz kechadi.

O'qituvchi Uyqu uchun eng qulay joy - sinf xonasasi, degan donishmand to'g'ri aytgan ekan. Mirisaev, sen bu dono fikrga qo'shimcha qila olasanmi? jumlarlari orqali Asrorning karaxt holatiga, sinfdoshlari qatori o'rnidan turib, salomlashmaganiga ishora edi. Biroq o'quvchi o'qituvchining gaplari mazmunini idrok etolmadi. O'z navbatida, o'qituvchi ham Asrorning munosabatini noto'g'ri anglatdi. Natijada kommunikantlarning ikki tomonlama muloqot to'sig'i yuzaga keldi. Bu holni psixolingvistik muloqot to'sig'i sifatida belgilash to'g'ri bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Darhaqiqat, "Pragmatik to'siqning kelib chiqishiga intralingvistik omillar bilan bir qatorda, ekstralinguistik omillar ham sabab bo'lar ekan, lisoniy omillar tilning fonetik-fonologik, morfemik-morfologik, leksik-semantik, sintaktik-uslubiy sathlariga oid bilimlarning nutq sub'ekti (adresant) va tinglovchisi (adresat) tomonidan nutqiy akt asnosida nome'yoriy qo'llanishi/bilinishiga aloqador bo'lsa, nolisoniy omillar nutq

ishtirokchilarining ruhiy-fiziologik jihatdan muloqotga tayyor emasligi/layoqatsizligi, bilimi, madaniyati, ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi

kabi jihatlari bilan bog'liq differensial xususiyatga ega ekanligi bilan  
belgilanadi." [1].

Artinarkan, atrofga ma'noli nazar tashladi. Nigohi keza-keza dasturxonda to'xtadi: yoqimli ko'rinishli yeguliklar "g'ilq" etib yutinishing majbur qildi, beixtiyor bag'ri hapriqib ketdi. Dasturxonning tusi oq bo'lishini shu paytgacha hecham xayoliga keltirmagandi. Uning olamida kirchimol bo'lsin, dog'-dug' bilinmasin, deb to'q rangli yoki gulli matolardan foydalanishardi. Dimog'i, burni betakror soflikdan achishganday bo'lib, ishtahasi ochildi. Non sindirayotganda Sohiba choy ko'tarib keldi.

– O'zi biron ta xizmatkor xotin yollasam bo'larkan, – dedi unga kiborona nigoh tashlab. – Manavinaqa ishlar oson emas ekan.

U bu gapni unchalik tushunmadi, chunki ayoldan taralayotgan xush ifordan, chiroyidan, go'zal qaddi-bastidan va ishta ochar yemaklardan sarxush edi. (N.Jaloliddin, "O'qilmagan kitob")

Kontekstga ko'ra, oddiy hunarmand ustanning moddiy jihatdan o'zining maishiy sharoitidan ancha yuqori darajadagi sharoit, uning nazdidagi favqulodda ozodalik, go'zal ayoldagi nafosat – barchasi ruhiyatiga ta'sir qiladi va karaxt holatda suhbatdoshining O'zi biron ta xizmatkor xotin yollasam bo'larkan jumlasida ifodalangan "uyda usta ishlatisning ortiqcha yumushlaridan charchadim" qabilidagi tagma'noni anglay olmaydi. Ikkinci tomonidan, sodda to'pori odam sifatida ifodaga "o'ralgan" tagma'noni idrok etishga odatlanmaganligi ham kommunikativ to'siqni kuchaytirgan.

Ijtimoiy-madaniy to'siqlar doirasida shevaga xos xususiyatlar ham farqlovchi vosita bo'lishi mumkin.

Ali polvon moshinasini yo'Iga to'g'rilab qo'ygan ekan, o'tirdigu jo'nadik.

– Qandaysiz, doyi? – so'radi u xumday boshini xiyol orqaga burib.

– Zap-zakonniy! O'zing-chi, jiyan, dimog' chog'mi?

– E-e, bir qimir-qimir-da, yuribmiz. Moshin ezib tashlaydi ba'zan. Uyda uch inak, to'rt gechchi, uch ho'jak, besh bacha... tushunib olavering.

Mallaev hech baloni tushunmadi. Bizga angrayib qaradi. Noiloj "tarjima" qildik:

– Uch sigir, uch buzoq, to'rt echki va beshta bola!

– A-a! Shevalaring qiziq ekan.

– Olotda shunaqa. (Abdunabi Hamro, "Olotning odamlari")

Ko'rinaliki, kommunikativ to'siqlarga oid tadqiqotlar tilshunoslikning har qanday yo'nalishlari uchun muhimdir.

## ADABIYOTLAR

1. Атамурадов Ш.Р. Прагматик тўсик прагмалингвистика муаммоси сифатида // <https://uza.uz/ru>
2. Брюхова О.Ю. Основы организации связей с общественностью. Екатеринбург: Издательство УрГУПС
3. Игебаева Ф.А. Деловые коммуникации в формировании коммуникативной компетентности современного специалиста агрониверситета. // Репликация культуры общества в контексте профессионального образования. Книга 2. Коллективная монография. – Георгиевск: Георгиевский технический институт, 2013. – С.78 –113.
4. Камардина Г.Г. Психологические трудности общения: основы психотехнологии [текст]: Учебное пособие / Г.Г.Камардина. – Ульяновск,2000. – 52с.
5. Кулухова Э.А. Коммуникативные барьеры и методы их преодоления // <https://human.snauka.ru/2021>
6. Негашева Е.А.Понятие и основные виды барьеров в общении // <https://scienceforum.ru/2015>
7. Панфилова А.П. Психология общения [текст]: Учебник для студентов сред. проф. образования / А.П.Панфилова. М.: Издательский центр «Академия», 2013. – 368с.
8. Попова Л.Л. Современные технологии общения [текст]: Учебное пособие / Л.Л.Попова. – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2009. – 180с.
9. Тимченко Н.М. Тайны успеха делового общения : СПб. : Изд-во СПб ГУП, 1995.
10. Курбонова М.А. Ўзбек болалар нуткининг прагматик хусусиятлари: филол.фантлари доктори (DSc) дисс...автореф. Тошкент, 2018.
11. <https://homo-expertus.ru/wp-content>
12. <https://dzen.ru>